2023-yil “7” martdagi
128-sonli buyruqqa
1-ilova

# 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasini 2023 - “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili”da “Navoiy kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatida amalga oshirishga oid CHORA-TADBIRLAR DASTURI

| T/r | Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (mln.so‘m) | Ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **INSON QADRINI YUKSALTIRISH VA ERKIN FUQAROLIK JAMIYATINI YANADA RIVOJLANTIRISH ORQALI XALQPARVAR DAVLAT BARPO ETISH YO‘NALISHI BO‘YICHA** | | | | | | |
| **12-maqsad: Ta’sirchan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish** | | | | | | |
| 1 | Kombinatda **“Davlat – xalq xizmatchisi”** tamoyili asosida Jismoniy va yuridik shaxslarni qabul qilishni tashkillashtirish, bo‘linmalarda sayyor qabullarni tashkil qilish. | 1. “NKMK“ AJ rahbariyati hamda mutasaddi mutaxassislardan iborat ishchi guruhining 2023-yilda shaxsiy masalalar bo‘yicha qabuli va sayyor qabullarini o‘tkazish bo‘yicha jadvali tasdiqlanadi.<br>2. Tasdiqlangan jadval asosida barcha bo‘linmalarda qabullar tashkil etiladi. Bunda: bo‘linmalardagi murojaatlar o‘rganiladi. | Har bir o‘tkazilgan sayyor qabul natijalari yuzasidan NKMK rahbariyatiga yozma ravishda ma’lumot taqdim etiladi | Jadval asosida | - | Q. Taparov,<br>I. Raxmatov,<br>Sh. Idiyev |
| 2 | Xotin-qizlar uchun teng huquq va imkoniyatlar yaratish, gender tengligini ta’minlash chora-tadbirlarini amalga oshirish. | 1. NKMK bo‘linmalarida xotin-qizlar faolligi va gender tenglikni ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi.<br>2. Davlat mukofotlari va kombinat mukofotlariga erishgan ayollar ishtirokida jamoalarda uchrashuvlar tashkil etish.<br>3. MKB, ShKB, JKB, NMZ, GQE kabi bo‘linmalarda xotin-qizlarga yaratilgan sharoitlarni o‘rganish. | Reja ishlab chiqiladi<br><br>Reja asosida<br><br>Natijalar bo‘yicha rahbariyatga ma’lumotnoma kiritiladi. | 2023-yil fevral<br><br>Reja asosida | - | Q. Taparov,<br>S. Nazarova,<br>O.Rahmatov,<br>A.Tursunov,<br>O.Temirov |

| T/r | Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (mln.so‘m) | Ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **II. MAMLAKATIMIZDA ADOLAT VA QONUN USTUVORLIGI TAMOYILLARINI TARAQQIYOTNING ENG ASOSIY VA ZARUR SHARTIGA AYLANTIRISH YO‘NALISHIDA** | | | | | | |
| 3 | Kombinat bo‘linmalari ishchi-xodimlari o‘rtasida Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati, Odob-axloq qoidalari va boshqa ichki idoraviy hujjatlarni targ‘ibot qilish va o‘quv seminar mashg‘ulotlarini tashkil etish. Xodimlar o‘rtasida mazkur hujjatlar ijrosi yuzasidan so‘rovnoma o‘tkazish. | 1. Kombinat ishchi-xodimlari o‘rtasida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan chora-tadbirlar rejasi tasdiqlanadi.<br>2. Barcha bo‘linma ishchi-xodimlarining huquqiy bilim va ongini yuksaltirish bo‘yicha keng qamrovli targ‘ibot tadbirlari, davra suhbatlari va seminarlar o‘tkaziladi. | Chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi | 2023-yil fevral<br><br>2023-yil davomida | - | Q. Taparov,<br>R. Avezov,<br>X. Raupov |
| **III. MILLIY IQTISODIYOTNI JADAL RIVOJLANTIRISH VA YUQORI O‘SISH SUR’ATLARINI TA’MINLASH YO‘NALISHIDA** | | | | | | |
| **22-maqsad: Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobar oshirish** | | | | | | |
| 4 | **Respublika davlat dasturi 44-band.**<br>Navoiydagi Pistali konida **4 million tonna oltin rudasini** qayta ishlash majmuasining qurilishini yakunlash. | 1. Investitsiya loyihasi doirasida ko‘zda tutilgan “Pistali” koni va “6-gidrometallurgiya zavodi” (“6-GMZ”) uchun asosiy tog‘-kon va boyitish texnologik uskunalarini sotib olinishi ishlarini yakunlash. | Amaliy chora-tadbirlar, Tarmoq jadvali | 2023-yil 15-iyun | Tijorat bank kreditlari asosida | **M.U. Amonov**,<br>F.Sh. Baxronov,<br>M.D. Alkarov |
| | | 2. “Navoiy KMK” AJ tomonidan “Pistali” koni va**“ 6-GMZ”** sanoat ob’ektlarining tashqi elektr ta’minoti qurilishi ishlarini yakunlash. | Amaliy chora-tadbirlar, Tarmoq jadvali | 2023-yil 15-avgust | Tijorat bank kreditlari asosida | F.SH. Baxronov,<br>M.U. Amonov,<br>**M.D. Alkarov,**<br>A.A. Eshonkulov |
| | | 3. Navoiy KMK” AJ tomonidan **“Pistali”** koni va 6-GMZ qurilish ishlarining 1-bosqichini yakunlash va foydalanishga topshirish. | Amaliy chora-tadbirlar, Tarmoq jadvali | 2023-yil 15-sentabr | Tijorat bank kreditlari asosida | **F.Sh. Baxronov**,<br>**M.D. Alkarov,**<br>A.A. Eshonkulov |

| T/r | Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (mln.so‘m) | Ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 5 | “NKMK” AJ Investitsiya Dasturga muvofiq 11 ta investitsiya loyihasini amalga oshirish, ***shu jumladan:*** | Bunda, konchilik texnikalari va uskuna-jihozlar etkazib beriladi, qurilish ishlari yakunlash va foydalanishga topshiriladi. | Tarmoq jadvallari | 2023-yil dekabr | 405,5 mln dollar Xorijiy bank kreditlari | F.Sh. Baxronov, M.U. Amonov, M.D. Alkarov, A.A. Eshonkulov |
| | 5.1. “Pistali konida oltin tarkibli ma’danlarni qazib olish va qayta ishlash majmuasini qurish (6-GMZ)” loyihasiga oid sanoat ob’ektlarini elektr energiyasi bilan ta’minlash | “O‘zelektroapparat-Electroshield” AJ va “NKMK” AJ o‘rtasidan tuzilgan tayyor holda foydalanishga topshirish" shartnomasiga asosan qurilish ishlarini yakunlash va foydalanishga topshirish | Tarmoq jadvali | 2023-yil iyun | 36,6 mln dollar Xorijiy bank kreditlari | F.Sh. Baxronov, M.D. Alkarov |
| | 5.2. Nurota hududida va “Pistali” konida tashqi elektr energiyasining tarmoq inshootlarini qurish va rekonstruksiya qilish. | “O‘zelektroapparat-Electroshield” AJ va “NKMK” AJ o‘rtasidan tuzilgan tayyor holda foydalanishga topshirish" shartnomasiga asosan qurilish ishlarini yakunlash va foydalanishga topshirish | Tarmoq jadvali | 2023-yil iyun | 25,4 mln dollar Xorijiy bank kreditlari | F.Sh. Baxronov, M.D. Alkarov, G‘.O. Xolboyev |
| | 5.3. Pistali konida oltin tarkibli ma’danlarni qazib olish va qayta ishlash majmuasini qurish (6-GMZ) (1-bosqich) | Loyiha doirasida “Pistali” koni va 6-GMZ uchun konchilik texnikalarini va uskuna-jihozlarni etkazib berish, qurilish ishlarining 1-bosqichini yakunlash va foydalanishga topshirish | Tarmoq jadvali | 2023-yil iyun | 106,0 mln dollar Xorijiy bank kreditlari | M.U. Amonov, S.Yu. Baqoyev, F.Sh. Baxronov, M.D. Alkarov, A.A. Eshonkulov |
| | 5.4. “Balpantov” va “Tomdibuloq” konlari negizida qazib olish karyerini qurish | Konchilik texnikalarini va uskuna-jihozlarni etkazib berish, qurilish ishlarini yakunlash va foydalanishga topshirish | Tarmoq jadvali | 2023-yil dekabr | 108,3 mln dollar Xorijiy bank kreditlari | M.U. Amonov, S.YU. Baqoev, F.SH. Baxronov, M.D. Alkarov, A.A. Eshonkulov. |
| | 5.5. “Turbay” konlarini o‘zlashtirish uchun qazib olish va qayta ishlash quvvatlarini kengaytirish | Bunda, konchilik texnikalari va uskuna-jihozlar etkazib beriladi, qurilish ishlari yakunlanadi va foydalanishga topshiriladi | Tarmoq jadvali | 2023-yil dekabr | 132,4 mln dollar Xorijiy bank kreditlari | M.U. Amonov, S.Yu. Baqoyev, F.Sh. Baxronov, M.D. Alkarov, A.A. Eshonkulov |
| 6 | Respublika doirasida har yili o‘tkaziladigan hududiy tarmoqlararo sanoat yarmarkalarida faol ishtirok etish va mahalliy | Yarmarkalarda kombinat stendida namoyish qilish uchun tarqatma materiallarni shakllantirish hamda mahalliylashtirilgan mahsulotlarni | Hukumat qarori asosida tasdiqlangan | 2023-yil mobaynida | 500,0 “NKMK” AJ | M.Amonov, Sh.Aminov L.Beknazarov, E.Danilina, |

| T/r | Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (mln.so‘m) | Ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | ishlab chiqaruvchilar bilan kooperatsiya aloqalarini kengaytirish. | realizatsiya qilish va import mahsulotlarni mahalliy ishlab chiqaruvchilar quvvatlarida o‘zlashtirish maqsadida, ularni namoyish qilish.<br>Yarmarka ishi davomida mahsulotlarni xarid qilish bo‘yicha shartnomalar hamda import o‘rnini bosuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish bo‘yicha hamkorlik memorandumlarini tuzish, shuningdek ularning ijrosini ta’minlash. | jadval bo‘yicha | | mablag‘lari | U.Sanakulov,<br>J. Xayitov,<br>Tarkibiy bo‘linmalar |
| 7 | Kombinatda mahalliylashti-rish dasturi asosida amalga oshirilayotgan 125 ta loyihalarni belgilangan reja-grafik asosida bajarilishini ta’minlash. | Tasdiqlangan hukumat qaroriga asosan dastur doirasida amalga oshiriladigan loyihalarninig to‘liq loyiha-texnik hujjatlarini ishlab chiqish va 2023-yilda 453,2 mlrd.so‘mlik 125 ta loyihalarni amalga oshirish. | Loyihalarni amalga oshirishning tarmoq jadvallari asosida | 2023-yil mobaynida | Xarajatlar asosiy faoliyat va Investitsiya dasturi doirasida nazarda tutilgan xarajatlar tarkibiga kiritilgan | M.Amonov,<br>E.Danilina,<br>U.Sanakulov,<br>Tarkibiy bo‘linmalar |
| **24-maqsad: Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta’minlash hamda “Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 foizga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 10 foizga qisqartirish** | | | | | | |
| 8 | Kombinat bo‘linmalarida **kichik hajmdagi qayta tiklanuvchi energiya manbalari**dan foydalanishni oshirish. | 1. 2023-yilda kombinat boshqarmasi va bo‘linmalarida qayta tiklanuvchi energiya manbalarini o‘rnatish bo‘yicha manzilli dasturni ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.<br>2. Tasdiqlangan dastur asosida qayta tiklanuvchi energiya manbalari o‘rnatiladi. | Chora-tadbirlar rejasi | 2023-yil mobaynida | 56 160,1<br>“NKMK” AJ mablag‘lari | G‘. Xolboyev,<br>F. Baxranov |
| **27-maqsad: Iqtisodiyotda moliyaviy resurslarni ko‘paytirish maqsadida, kelgusi 5 yilda fond bozori aylanmasini 200 million AQSh dollaridan 7 milliard AQSh dollariga yetkazish** | | | | | | |

| T/r | Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (mln.so‘m) | Ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 9 | **Respublika Davlat dasturining 79-bandi.**<br>Iqtisodiyotni, shu jumladan **sanoatning yetakchi tarmoqlarini yanada liberallashtirish** hamda **transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish**. | 2023–2026-yillarda ustav kapitalida **davlat ulushi mavjud transformatsiya qilinadigan aksiyadorlik jamiyatlari** faoliyatiga **ESG** (**Environment, Social, Governance)**ni joriy etish, bunda atrof muhit, ijtimoiy omillar va korporativ boshqaruv omillari (ESG omillari), shuningdek, barqaror rivojlanish masalalari bilan bog‘liq omillarni hisobga olish masalalarini jamiyatlar boshqaruv organlarida ko‘rib chiqilishini tashkillashtirish va tavsiyalar ishlab chiqish.<br>Bunda, xalqaro moliya institutlarini jalb qilgan holda quyidagi korxonalarda ESGni joriy etish:<br>2023-2024-yilda – **“Navoiy KMK” AJ** | Chora-tadbirlar rejasi | 2023-yil 30 sentyabr | Hisob-kitobga asosan | Ye. Antonov,<br>Sh. Aminov,<br>R. Saidov,<br>**A. Cherdansev,**<br>**Sh. Ortiqova**,<br>E. Davronov,<br>S. Miryakubov |
| **35-maqsad: “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish** | | | | | | |
| 10 | **“O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!”** loyihasi va **“Moziyga sayohat”** dasturi asosida mamlakatimizdagi tarixiy shaharlarga **4 ming nafarga** yaqin kombinat ishchi-xodimlari uchun ichki va ziyorat turizmini tashkil etish. | 1. Kombinat ma’muriyati va Kasaba uyushmasi Kengashining qo‘shma qarori asosida taqvim-reja ishlab chiqildi.<br>2. Yil davomida Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi tarixiy shaharlarga sayohatlar tashil etiladi. | Tasdiqlangan taqvim-reja asosida | Har oyda | **2 000,0**<br>“NKMK” AJ va Kasaba uyushmasi mablag‘lari | Q.X.Taparov,<br>Sh. Aminov,<br>I. Raxmatov,<br>R. Ergashev,<br>S. Radjabov |
| 11 | 2023-yilda mo‘ljallangan Investitsiya dasturiga ko‘ra kombinatda yangi loyihalarni amalga oshirish va yangi ishlab | Yaratiladigan yangi ish o‘rinlarining mutaxassislik va ixtisosliklariga qarab, ehtiyoj bo‘yicha oliy ta’lim muassasalari, kasb-hunar ta’limi | Tasdiqlangan reja asosida | Yil mobaynida | - | F. Baxranov,<br>O. Raxmatov,<br>A. Rizayev,<br>O‘quv markazi |

| T/r | Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (mln.so‘m) | Ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | chiqarish ob’ektlarining ishga tushirilishi hisobiga 976 ta yangi ish o‘rinlari yaratish va malakali ishchi-xodimlar bilan ta’minlash | muassasalari bitiruvchilari, ma’lum bir kasbga ega bo‘lgan ishsiz fuqarolar hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj va ish topishda teng raqobatlasha olmaydigan, kasbga ega bo‘lmagan ishsiz fuqarolarni kombinat o‘quv markazlarida kasbga o‘qitish orqali ish bilan ta’minlash | | | | direktorlari |
| **IV. ADOLATLI IJTIMOIY SIYOSAT YURITISH, INSON KAPITALINI RIVOJLANTIRISH YO‘NALISHIDA** | | | | | | |
| **37-maqsad: Har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o‘qish imkoniyatini yaratish. Kasbga o‘qitish ko‘lamini 2 baravar oshirib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlarga o‘qitish va bu jarayonda nodavlat ta’lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish.** | | | | | | |
| 12 | O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim muassasalarining sirtqi bo‘limiga o‘qishga kirish uchun yosh, istiqbolli xodimlarga tavsiyanomalar berishni komission tartibda ko‘rib chiqib, kontrakt to‘lovlarini tavsiyanomaga asosan to‘lab berish. | “NKMK” AJ bo‘linma rahbarlari tomonidan tegishli buyruqlar bilan tashkil etilgan komissiyalar tomonidan adolat prinsiplari ostida, ishlab chiqarish jarayonida eng faol ishchi-xodimlar ichidan ko‘rib chiqilib berilgan tavsiyalarga asosan “NKMK” AJning Markaziy komissiyasi tomonidan yakuniy xulosa berilib o‘rnatilgan tartibda o‘quv shartnomalarni tuzish (70-100 kishi). | Buyruq asosida amalga oshiriladi | 2023-yil III-IV chorakda | **1 500,0**<br>“NKMK” AJ mablag‘lari | Q. Taparov,<br>Sh. Aminov,<br>O. Raxmatov,<br>Bo‘linma rahbarlari |

| T/r | Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (mln.so‘m) | Ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 13 | Kombinatda faoliyat yuritayotgan o‘rta va quyi bo‘g‘in rahbar va xodimlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash. | 1. “NKMK” AJ rahbar, mutaxassislar va ishchi-xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish. Bunda rahbarlar, mutaxassislar va ishchi-xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo‘yicha yillik reja ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.<br>2. Yil davomida 12 020 nafar (o‘rta va quyi bo‘g‘in rahbarlari va xodimlarini malakasini oshirish va qayta tayyorlanganlar soni jami 5 855 ta, shundan qayta tayyorlash va ikkinchi mutaxassislik bo‘yicha o‘qitiladiganlar– 4 667 nafar, rahbarlar va mutaxassislar - 1498 nafar) ishchi-xodimlarni qayta tayyorlab malakasini oshirish ishlari bajariladi. | Tasdiqlangan yillik reja asosida | 2023-yil davomida | **12 000,0**<br>“NKMK” AJ mablag‘lari | Q. Taparov,<br>R. Saidov,<br>O. Raxmatov,<br>Tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari,<br>O‘quv markazi direktorlari |
| 14 | Kombinat uchun o‘rta bo‘g‘in mutaxassislarini tayyorlaydigan Navoiy shahridagi “Ishga marhamat” Monomarkaz faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish orqali murakkab uskuna operatori, texnolog, konchi, laborant va yuqori texnologiyalar sohasidagi boshqa yo‘nalishlarga o‘qitish. | Bunda:<br>- viloyatda tog‘-kon, metallurgiya, kimyo, qurilish materiallari sanoati va ularga bog‘liq bo‘lgan yo‘nalishlar uchun kadrlar tayyorlash rejalarini belgilash;<br>- kasb-hunarga o‘qitish maskanlarining o‘quv dasturlari va o‘qitish metodikasini zamonaviy talablar asosida olib borish;<br>- o‘qish jarayonini ishlab chiqarish bilan bog‘lab, har bir o‘quvchining o‘z mutaxassisligi bo‘yicha bevosita korxonalarda amaliyot o‘tashini tashkil etishni yo‘lga qo‘yish nazarda tutiladi. | 2023-yil fevral-dekabr | NKMK hisobidan | **1 000,0**<br>“NKMK” AJ mablag‘lari | Q. Taparov,<br>O. Raxmatov,<br>F. Hoshimov,<br>A. Rizayev |
| **41-maqsad: Maktablarni rivojlantirish milliy dasturini joriy etish orqali xalq ta’limi tizimida qo‘shimcha 1,2 million o‘quvchi o‘rni yaratish** | | | | | | |
| 15 | Navoiy viloyati, Qiziltepa tumani, “To‘dako‘l” dam olish | Maktabdan tashqari davlat sport-ta’lim muassasasi hisoblangan Xalqaro | Tasdiqlangan | 2023-yil 30-iyun | **110 000,0** | F. Baxronov,<br>A. Eshonkulov, |

| T/r | Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (mln.so‘m) | Ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | bazasi hududida 100 o‘rinli Xalqaro shaxmat maktabini qurish | shaxmat maktabini tashkil qilish | jadval asosida | | “NKMK” AJ mablag‘lari | I. Raxmatov |
| 16 | Navoiy viloyati Tomdi tumani hududida 504 o‘rinli ixtisoslashtirilgan maktab internatini qurish | Prezident ta’lim muassasalari agentligi huzuridagi ixtisoslashtirilgan maktablar tarmog‘ini kengaytirish | Tasdiqlangan jadval asosida | 2023-yil 30-avgust | **93 000** “NKMK” AJ mablag‘lari | F. Baxronov, A. Eshonkulov, I. Raxmatov |
| **67-maqsad: Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanadigan fuqarolarning sonini oshirish.** | | | | | | |
| 17 | Kombinat ishchi-xodimlari, ularning oila a’zolari va pensionerlar o‘rtasida **ommaviy sport tadbirlarini** tashkil etish. | 1. Yil davomida MKB, ShKB, JKB, “1-GMZ” KB, NMZ, ZQB va Navoiy shahridagi bo‘linmalarning ishchi-xodimlari o‘rtasida Jismoniy tarbiya va sport klublarining yillik rejasi asosida sport tadbirlari o‘tkaziladigan reja ishlab chiqish.<br>2. Sport bilan shug‘ullanishda **12 ming nafardan** ortiq ishchi-xodimlar va ularning oila a’zolari, pensionerlar qamrab olinadi. | Tasdiqlangan tadbirlar rejasi asosida amalga oshiriladi | 2023-yil davomida jadval asosida | **100,0** “NKMK” AJ va Kasaba uyushmasi mablag‘lari | Q. Taparov, R. Saidov, I. Raxmatov, bo‘linmalar rahbarlari |
| **69-maqsad: Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta’minlash.** | | | | | | |
| 18 | Kombinatda xotin-qizlarga tazyiq va zo‘ravonlikka nisbatan murosasizlik muhitini yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta’minlashga qaratilgan targ‘ibot tadbirlari o‘tkazish | Barcha bo‘linmalarda xotin-qizlarga tazyiq va zo‘ravonlikning oldini olish sohasidagi qonunchilik hujjatlari targ‘iboti amalga oshiriladi. | CHora-tadbirlar dasturlari ishlab chiqiladi | Har chorakda | - | S. Nazarova, X. Raupov, S. Radjabov, A.Bo‘stonov, U. Badalov, SH. Abbosov |
| 19 | Kombinatda 15-may – **“Xalqaro oila kuni”**ni keng nishonlash va **“Yangi O‘zbekistonning ibratli oilasi”** ko‘rik-tanlovini o‘tkazish. | **1.** Bo‘linmalarda “Xalqaro oila kuni”ni keng nishonlash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturini tayyorlash, shu jumladan ko‘rik-tanlov Nizomi, uni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish. | Chora-tadbirlar dasturlari ishlab chiqiladi | 2023-yil aprel | **50,0** “NKMK” AJ va Kasaba uyushmasi | I. Raxmatov, O. Raxmatov, S. Nazarova, X. Raupov, S. Radjabov |

| T/r | Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (mln.so‘m) | Ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | 2. Barcha bo‘linmalarda **“15-may – “Xalqaro oila kuni”**ga bag‘ishlab o‘tkaziladigan tadbirlarni yuqori saviyada tashkil etish va g‘oliblarni taqdirlash. | | 2023-yil may | mablag‘lari | |
| **70-maqsad: Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish** | | | | | | |
| 20 | Yoshlarni bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish va ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash. | 1. “NKMK” AJ tizimida yoshlarga oid davlat siyosatini 2023-yilda amalga oshirish Dasturini ishlab chiqish va tasdiqlash;<br>2. Dasturga asosan besh muhim tashabbus, ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni yuqori saviyada o‘tkazish. | Dastur<br><br>Nizomlar, chora-tadbirlar dasturlari ishlab chiqiladi | Fevral<br><br>Dastur muddat-lariga asosan | **447,0**<br><br>“NKMK” AJ va Kasaba uyushmasi mablag‘lari | Q.Taparov, I.Raxmatov, Sh. Aminov, R. Saidov, S. Radjabov, X. Raupov, NKMK bo‘linma rahbarlari |
| 21 | Yoshlarni ilm-fanga keng jalb qilish, intellektual salohiyatini oshirish, iqtidor va iste’dod egalarining g‘oya va tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash | 1. “NKMK” AJ tizimida yoshlarga oid davlat siyosatini 2023-yilda amalga oshirish Dasturida nazarda tutish;<br>2. “Yilning eng yaxshi yosh mutaxassisi”, “Yilning eng mohir yosh kasb egasi”, “Yilning eng yaxshi boshlang‘ich tashkilot etakchisi”, “Eng yaxshi ratsionalizatorlik taklifi”, “Zakovat” intellektual o‘yini kabi tanlovlar o‘tkazish. | Nizomlar, chora-tadbirlar dasturlari asosida | Fevral<br><br>Tasdiqlangan dastur muddat-lariga asosida | **432,0**<br><br>“NKMK” AJ va Kasaba uyushmasi mablag‘lari | Q.Taparov, I.Raxmatov, Sh. Aminov, R. Saidov, X.Raupov, K.Gafurov, S.Radjabov, Bo‘linma rahbarlari |
| 22 | Kombinat ishchi-xodimlari va NDKTU talabalarining ishlab chiqarish ob’ektlariga ekskursiyalarini tashkil etish. | 1. Kombinat ma’muriyati va Kasaba uyushmasi Kengashi Rayosatining qo‘shma qarori qabul qilingan.<br>2. Tasdiqlangan jadval asosida **405 nafar** kishi ekskursiyalar tashkil etiladi. | Qo‘shma qaror asosida | 2023-yil davomida jadval asosida | **45,0**<br><br>“NKMK” AJ va Kasaba uyushmasi mablag‘lari | Q.Taparov, R. Saidov, I. Raxmatov, S. Radjabov, R. Ergashev bo‘linma rahbarlari, NDKTU |

| T/r | Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (mln.so‘m) | Ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 23 | NKMK ishlamaydigan pensionerlariga Jamoa shartnomasi asosida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotib olishlari uchun bir martalik mablag‘ ajratish. | Jamoa shartnomasiga ko‘ra 2023-yilda 8700 nafardan ortiq kombinat pensionerlariga mablag‘ ajratiladi. | Arizasiga asosan | Yil davomida | **5 000,0** “NKMK” AJ mablag‘lari | Sh. Aminov, O. Raxmatov, I. Raxmatov, R. Saidov, J. Novikova, bo‘linmalar rahbarlari |
| 24 | Jamoa shartnomasiga binoan ishlamaydigan pensionerlar sog‘lig‘ini yaxshilash uchun sanatoriy-profilaktoriyalarga imtiyozli yo‘llanmalar ajratish. | Jamoa shartnomasining 14-ilovasiga asosan yil davomida **800 nafar** pensionerlarga yo‘llanmalar ajratiladi | Pensionerlarning arizasiga asosan beriladi | Yil davomida | **3 200,0** “NKMK” AJ mablag‘lari | I. Raxmatov, R. Saidov, Kasaba uyushmalari |
| 25 | NKMK kam ta’minlangan, yordamga muhtoj ishchi-xodimlari va kombinatning yolg‘iz pensionerlariga moddiy yordam ajratish. | Kasaba uyushma Kengashining “Birdamlik” fondi mablag‘lari hisobidan **500 nafardan ortiq** kishiga ajratiladi. | Murojaatchi-ning arizasi va Rayosat qaroriga asosan beriladi | Yil davomida | **1 000,0** Kasaba uyushmasi mablag‘lari | I. Raxmatov, Kasaba uyushma qo‘mitalari raislari |
| 26 | Respublikamizning chekka va cho‘l hududlarida yashovchi **1000 nafardan** ortiq kam ta’minlangan oila farzandlari va oilaviy bolalar uylari tarbiyalanuvchilari uchun bolalar sog‘lomlashtirish oromgohlariga imtiyozli yo‘llanmalar ajratish. | 1. Respublika Muvofiqlashtiruvchi guruh raisi tomonidan imzolangan bayonnomaga asosan.<br>2. Kombinat ma’muriyati va Kasaba uyushmasi Kengashi Rayosatining qo‘shma qarori asosida ajratiladi. | Kelib tushgan murojaatlar asosida | 2023-yil iyun-avgust | **2 500,0** “NKMK” AJ mablag‘lari | I. Raxmatov, Q. Taparov, R. Saidov |
| **V. MA’NAVIY TARAQQIYOTNI TA’MINLASH VA SOHANI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQISH YO‘NALISHIDA** | | | | | | |
| **71-maqsad: Ezgulik va insonparvarlik tamoyiliga asoslangan “Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” g‘oyasini keng targ‘ib etish orqali jamiyatda sog‘lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish** | | | | | | |

| T/r | Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (mln.so‘m) | Ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 27 | Targ‘ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning **ta’sirchan uslublarini ishlab chiqish** hamda ularni o‘z vaqtida amalga oshirish choralarini ko‘rish. | 1. Kombinatda ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish bo‘yicha Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi bilan kelishilgan “Yo‘l xarita” ishlab chiqish va tasdiqlash.<br>2. “Yo‘l xarita”da belgilangan tadbirlarning to‘liq bajarilishini ta’minlash. | Tadbirlar, davra suhbatlari | 2023-yil fevral | - | X. Raupov,<br>S. Radjabov |
| 28 | Yosh oilalar, imkoniyati cheklangan va ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni ma’naviy va moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash, valontyorlik aksiyalarini tashkil etish. | 1. “Ezgulik yo‘lida birlashaylik”, “Fidoyi yoshlar” aksiyalari, “Ezgulik albatta qaytadi” qon topshirish aksiyalarida kombinat xodimlari, shu jumladan yoshlarning faol ishtirokini ta’minlash. | Nizomlar asosida olib boriladi | har oyda | **25,5**<br>“NKMK” AJ mablag‘lari | S.Radjabov<br>I.Raxmatov,<br>B. Saidov |
| **74-maqsad: Jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag‘rikenglik muhitini mustahkamlash** | | | | | | |
| 29 | Yurtimizda **millatlararo totuvlik, diniy bag‘rikenglik va xalqlararo do‘stlikni targ‘ib etuvchi** madaniy-ma’rifiy tadbirlarni o‘tkazish. | 1. 30-iyul – Xalqlar do‘stligi kuni munosabati bilan **“Do‘stlik” festivali**ni tashkil etish va o‘tkazish.<br>2. Kombinat va uning bo‘linma-larida turli millat vakillari o‘rtasida hamjihatlikni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqiladi. Bunda:<br>- qozoq, rus, tojik, qoraqalpoq va boshqa millat vakillari ishtiroki ta’minlanadi;<br>Tadbirlarda faol ishtirok etganlarga sovg‘alar beriladi<br>3. 16 noyabr – **Xalqaro bag‘rikenglik kuni**ga bag‘ishlab respublikaning barcha hududlarida **“Bag‘rikenglik” haftaligi**ni o‘tkazish. | Har bir bo‘linmada ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etiladi | 2023-yil aprel<br><br>2023-yil 28-29-30-31-iyul<br><br>2023-yil oktabr | **50,0**<br>“NKMK” AJ mablag‘lari | X. Raupov,<br>R. Saidov,<br>I. Raxmatov,<br>S. Radjabov,<br>bo‘linma rahbarlari |

| T/r | Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (mln.so‘m) | Ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **84-maqsad: Korrupsiyaga moyil soha va tarmoqlarni aniqlash, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish** | | | | | | |
| 30 | Kombinat ishchi-xodimlari o‘rtasida jinoyatchilik, korrupsiya va huquqbuzarliklarning oldini olish, oilalar mustahkamligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish. | Huquqni muhofaza qiluvchi organlardan mutaxassislarni jalb qilgan holda har bir bo‘linmalarda o‘quv seminar, davra suhbatlari o‘tkaziladi. | Seminar, davra suhbatlari | 2023-yil davomida | - | R.Avezov,<br>X. Raupov,<br>S. Radjabov,<br>S. Nazarova |
| **VI. MILLIY MANFAATLARDAN KELIB CHIQQAN HOLDA UMUMBASHARIY MUAMMOLARGA YONDASHISH YO‘NALISHIDA** | | | | | | |
| **79-maqsad: Aholi salomatligi va genofondiga ziyon yetkazadigan mavjud ekologik muammolarni bartaraf etish** | | | | | | |
| 31 | Atrof tabiiy muhitni kuzatish, davlat **ekologik nazoratini doimiy axborot bilan ta’minlash, ifloslantiruvchi manbalarning holati va atrof-muhitga ta’siri monitoringini** amalga oshirish. | 1. Suv resurslarini ifloslantiruvchi manbalar monitoringi;<br>2. Atmosfera havosini ifloslantiruvchi manbalar monitoringi;<br>3. Tuproqlarni ifloslantiruvchi manbalar monitoringi;<br>4. Yer osti suvlarini ifloslanishi monitoringi.<br>Bunda: “NKMK” AJ bo‘linmalarning oqova suvlari va suv tozalash inshootlari suvidan namunalar olinadi va o‘rganiladi;<br>Atmosfera havosiga tashlama manbalaridan joyiga chiqib namunalar olinadi va o‘lchovlar o‘tkazish tashkil etiladi;<br>Chang-gaz tozalash qurilmalarining samaradorligi o‘rganiladi; | Monitoring dasturi asosida olib boriladi | 2023-yil davomida har chorakda | **1 000.0**<br>“NKMK” AJ mablag‘lari | Ye. Antonov,<br>A. Cherdansev,<br>Sh. Ortiqova<br>Tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari |

| T/r | Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (mln.so‘m) | Ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Yer resurslarini ifloslantirish bo‘yicha joyiga borib tuproqdan namuna olinadi, tahlil qilish va o‘rganish ishlari amalga oshiriladi;<br>Quyqato‘plagichlarning kuzatuv quduqlaridan er osti suv namunalarini olish va tahlil qilish ishlari amalga oshiriladi. | | | | |
| **80-maqsad: Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish, shahar va tumanlarda ekologik ahvolni yaxshilash, “Yashil makon” umummilliy loyihasini amalga oshirish** | | | | | | |
| 32 | **“Yashil makon”** umummilliy loyihasi doirasida kombinat tomonidan joriy yilning bahor va kuz mavsumlarida 20 000 ta manzarali va mevali daraxt ko‘chatlari ekish orqali dastur ijrosida faol ishtirok etish. | 1. Mevali va manzarali daraxt ko‘chatlarini ekish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlanadi. Bunda:<br>–har bir bo‘linma bo‘yicha ekilishi rejalashtirilgan daraxtlar soni, turi va maydoni belgilab beriladi.<br>2. Reja asosida bo‘linmalarda belgilangan muddatlarda ko‘chat ekish ishlari olib boriladi. | Belgilangan “Dolzarb 40-kunlik”da hasharlar tashkil etish orqali | 2023-yil fevral-mart | **250,0**<br>“NKMK” AJ mablag‘lari | Q. Taparov,<br>I. Raxmatov,<br>N. Djulibekov,<br>Sh. Aminov,<br>B. Saidov,<br>Bo‘linma rahbarlari |
| 33 | Kam ta’minlangan ishchi-xodimlar oilasiga va ehtiyojmand yolg‘iz pensionerlar uchun oziq-ovqat mahsulotlari to‘plamini ajratish | 1. Bayramlar arafasida kombinat ma’muriyati va Kasaba uyushmasi Kengashi Rayosatining qo‘shma qarori asosida **1200 dan** ortiq oziq-ovqat to‘plami ajratiladi | Bo‘linmalar kasaba uyushmalari tomonidan shakllantiril-gan ro‘yxat asosida | Bayramlar arafasida | **300,0**<br>“NKMK” AJ mablag‘lari va Kasaba uyushmasi mablag‘lari | Q. Taparov,<br>I. Raxmatov,<br>Sh. Aminov,<br>R.Saidov,<br>B. Saidov |
| **82-maqsad: Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning samarali mexanizmlarini shakllantirish** | | | | | | |
| 34 | Ishchi-xodimlar, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida **terrorizm va ekstremizmga qarshi qat’iy va barqaror immunitet**ni | 1. Kombinat ishchi-xodimlari, ayniqsa yoshlar o‘rtasida **“Jaholatga qarshi ma’rifat”** shiori ostida ijtimoiy-ma’naviy muhit barqarorligini ta’minlash, dinlararo va millatlararo | Chora-tadbirlar rejasi asosida | 2023-yil fevral | - | X. Raupov,<br>S. Radjabov |

| T/r | Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (mln.so‘m) | Ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | shakllantirish | totuvlikni mustahkamlash, terrorizm va ekstremizm g‘oyalariga qarshi ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibotni tashkil etish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi tasdiqlanadi.<br>2. Kombinatning har bir bo‘linmasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar va diniy idora vakillari ishtirokida **“Islom dini terrorga qarshi”, “Ma’naviyat – odam va olam xaloskori”, “Odam savdosi xavfidan ogoh bo‘ling”, “Ijtimoiy makonda axborotdan foydalanish madaniyati”, “Diniy ekstremizm va terrorizm tahdidlari, uning jamiyat ijtimoiy-ma’naviy muhitida ko‘rsatadigan salbiy ta’siri”, “Ommaviy madaniyat va ma’naviy tarbiya”** kabi mavzularda targ‘ibot tadbirlari o‘tkaziladi. | Har bir bo‘linmada tadbirlar tashkil etiladi | Chora-tadbirlar rejasida ko‘rsatil-gan sanalarda | | |
| **83-maqsad: Davlat xizmatida halollik standartlarini joriy etish** | | | | | | |
| 35 | Jamiyat va uning bo‘linmalarida Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularning oldini olish choralarini ko‘rish **va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni oldini olishning** samarali mexanizmlarini yaratish. | Adliya vazirligidan 2022-yil 31-avgustda 3383-son bilan ro‘yxatga olingan Uslubiyot *(korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash)* asosida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, ularni bartaraf etish choralarini ko‘rish, profilaktika qilish va ularning oldini olish bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish**.** | Tasdiqlangan ish rejasi asosida olib boriladi | 2023-yil davomida | - | R.Avezov, Bo‘linmalardagi Komplayens xizmati vakillari |
| **84-maqsad: Korrupsiyaga moyil soha va tarmoqlarni aniqlash, korrupsiyaviy omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish** | | | | | | |
| 36 | Ochiq ma’lumotlar sifatida joylashtirilishi kerak bo‘lgan | 1. Korrupsiyaga moyil soha va tarmoqlarni aniqlash, korrupsiyaviy | Har chorak | 2023-yil | - | R. Avezov, B. Davlatov, |

| T/r | Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (mln.so‘m) | Ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | **ijtimoiy ahamiyatga molik ma’lumotlarni jamiyatning** veb-saytiga joylashtirib borilishini ta’minlash. | omillarni bartaraf etish tizimining samaradorligini oshirish, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlarni shu jumladan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha ko‘rilgan choralar haqidagi hisobotlar (axborot), ichki idoraviy hujjatlarning korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish natijalarini e’lon qilish.<br>**2.** Jamiyatda o‘z rasmiy veb-sayti hamda ochiq ma’lumotlar Portalida bo‘sh ish o‘rinlari (markaziy, hududiy va tizim tashkilotlarida) ishga qabul qilish shartlari, nomzodlarga qo‘yiladigan talablar, taqdim qilinishi lozim bo‘lgan hujjatlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni muntazam kiritib borish tizimini joriy etish. | yakuni buyicha | davomida | | X. Raupov,<br>O. Raxmatov<br>Sh. Idiyev |
| **VII. MAMLAKATIMIZ XAVFSIZLIGI VA MUDOFAA SALOHIYATINI KUCHAYTIRISH, OCHIQ PRAGMATIK VA FAOL TASHQI SIYOSAT OLIB BORISH** | | | | | | |
| **95-maqsad: An’anaviy hamkorlarimiz bilan munosabatlarni yanada rivojlantirish,<br>tashqi aloqalar geografiyasini kengaytirishga ustuvor ahamiyat qaratib, iqtisodiy diplomatiyani kuchaytirish** | | | | | | |
| 37 | Kombinat ishchi-xodimlari o‘rtasida O‘zbekistonning **investitsiyaviy jozibadorli-gini yanada oshirish** bo‘yicha faol targ‘ibot ishlari, tadbirlari va taqdimotlar o‘tkazish. | **1.** Toshkent davlat moliya instituti bilan seminar va davra suhbatlari o‘tkazish bo‘yicha xo‘jalik shartnomasi tuzish.<br>2. Kombinat bo‘linmalarida O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar mazmun-mohiyatini keng targ‘iboti amalga oshiriladi. | Chora-tadbirlar rejasi asosida | 2023-yil davomida | - | X. Raupov,<br>S.Radjabov |

| T/r | Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (mln.so‘m) | Ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **96-maqsad: O‘zbekistonning Birlashgan Millatlar Tashkiloti organlari va institutlari, global va mintaqaviy iqtisodiy, moliyaviy va gumanitar tashkilotlardagi faoliyatini kuchaytirish** | | | | | | |
| 38 | Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining **75 yilligiga bag‘ishlangan** targ‘ibot tadbirlarini tashkil etish. | 1. **Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi qabul qilinganligining 75 yilligi** bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqiladi.<br>2. Kombinat bo‘linmalarida O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar mazmun-mohiyatining keng targ‘iboti amalga oshiriladi. | Chora-tadbirlar rejasi asosida | 2023-yil davomida | - | X. Raupov, S.Radjabov |
| **DAVLAT DASTURINI OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI VA IJTIMOIY TARMOQLAR ORQALI KENG YORITIB BORISH YO‘NALISHIDA** | | | | | | |
| 39 | Davlat dasturining kombinatdagi ijrosi bo‘yicha “Konchilar hayoti” gazetasida muntazam materiallar berib borish tizimini yo‘lga qo‘yish. | 1. Davlat dasturini “Konchilar hayoti” gazetasida doimiy va tizimli yoritib borish uchun alohida media-reja ishlab chiqiladi.<br>2. Gazetada davlat dasturi ijrosi bo‘yicha rukn tashkil etiladi va shu asosida yil davomida muntazam materiallar berib boriladi. | Maqola, xabar, suhbat-intervyu, fotoetyud tarzida | Har oyda | - | N. Sadriddinov, tahririyat muxbirlari |
| 40 | Davlat dasturining kombinatdagi ijrosini respublika OAVlarda tizimli yoritib borilishini yo‘lga qo‘yish. | 1. Davlat dasturini respublika va OAVlarida doimiy va tizimli yoritib borish amalga oshiriladi.<br>2. Davlat dasturining ijrosi bo‘yicha matbuot anjumani, brifinglar tashkil qilinadi va OAV orqali aholi xabardor etib boriladi. | Matbuot anjumani, maqola, xabar, suhbat-intervyu tarzida | Har chorak yakuni bilan | - | X. Raupov, A. Jo‘rayev |
| 41 | Davlat dasturi ijrosi bo‘yicha videorolik, infografika tayyorlash va ularni OAVlarida yoritib borish. | Yil davomida videorolik va infografikalar tayyorlash yuzasidan reja ishlab chiqiladi, shu asosida ular | Kombinat dasturining ijrosi bo‘yicha yarim | Har chorakda | - | X. Raupov, B. Abdullayev |

| T/r | Ustuvor yo‘nalishlar, maqsadlar va vazifalar | Amalga oshirish mexanizmlari | Amalga oshirish shakli | Muddati | Amalga oshirish xarajatlari (mln.so‘m) | Ijrochilar |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | tayyorlanadi hamda kombinat sayti, ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalari va boshqa axborot manbaalarida tizimli yoritib boriladi. | yillik va yillik infografika asosida | | | |

*Izoh:*

*2023-yilda ‘‘Navoiy kon-metallurgiya kombinati’’ aksiyadorlik jamiyatida ‘‘Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili’’da amalga oshirishga oid chora-tadbirlar Dasturi tadbirlarini amalga oshirishning jami xarajatlari (dastlabki hisob-kitoblarga asosan)*

*290 559,6* ***mlrd so‘m va 405,5 mln AQSh dollarini*** *tashkil qiladi.*